Bloger bilan hamkorlik shartnomasi № _____

ommaviy oferta

_____ shahri «____» _____ 20___ y.

Dighub.uz (keyingi o‘rinlarda «Dighub») nomidan **Otabek Ahmadaliyev** bir tomondan va _____ (keyingi o‘rinlarda «Hamkor») ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. Atamalar

- Mijoz: Hamkor havolasi yoki promokodi orqali Dighub’da birinchi marta ro‘yxatdan o‘tgan yangi foydalanuvchi.
- Ulush: Mijoz Dighub’ning pullik xizmatlari, jumladan keyinchalik qo‘shiladigan xizmatlar uchun to‘lagan summadan Hamkorga hisoblanadigan mukofot.

2. Predmet

Hamkor o‘z auditoriyasiga Dighub xizmatini tavsiya qiladi, Dighub esa Mijozlar to‘lovidan ulush to‘laydi. Ishtirok etish bepul. Shartnoma mehnat munosabatlarini yuzaga keltirmaydi.

3. Kuchga kirishi

Dighub arizani tasdiqlagan kundan kuchga kiradi. Dighub sababini ko‘rsatib rad etishi mumkin. Qabul sanasi, versiyasi va IP manzil saqlanadi. Tomonlar xohishiga ko‘ra qog‘ozda yoki elektron raqamli imzo (E-IMZO) bilan ham imzolashi mumkin. Bu majburiy emas.

Dighub deganda dighub.uz sayti egasi tushuniladi. Uning rekvizitlari shartnoma sahifasida ko‘rsatiladi va keyinchalik to‘ldirilishi yoki yangilanishi mumkin. Bu shartnoma shartlarini o‘zgartirmaydi, uning kuchini to‘xtatmaydi va qayta qabul qilishni talab qilmaydi.

4. Mijozni biriktirish

- Havola oxirgi o‘tishdan boshlab 30 kun amal qiladi.
- Promokod ro‘yxatdan o‘tishda kiritiladi va havoladan ustun turadi.
- Mijoz faqat bitta Hamkorga biriktiriladi. O‘quv markaziga biriktirilgan foydalanuvchi bloger mijozi bo‘lmaydi.
- Hamkorning o‘zi va uning boshqa akkauntlari Mijoz hisoblanmaydi.
- Mijozga birinchi hosting to‘lovi uchun 10% chegirma beriladi.

5. Ulush

- Hosting buyurtmasi va uzaytirish uchun chegirmadan keyin to‘langan summaning 20 foizi. Boshqa va yangi xizmatlar uchun foiz kabinetda ko‘rsatiladi.
- Muddat barcha xizmatlar uchun umumiy: Mijoz ro‘yxatdan o‘tgan kundan 12 oy.
- Balans to‘ldirish, bonuslar, hostingni tiklash va kabinetda 0% ko‘rsatilgan xizmatlardan (hozircha domen) hisoblanmaydi.

- Kabinetda Hamkorga boshqa qiymat belgilangan bo‘lsa, o‘sha qo‘llanadi.
- To‘lov qaytarilsa, tegishli ulush bekor qilinadi.

6. To‘lash

- Ulush 14 kundan keyin ochiladi, eng kam yechish 50 000 so‘m.
- So‘rovdan keyin 3 ish kuni ichida o‘tkaziladi. Dighub balansiga ham o‘tkazish mumkin.
- Rekvizitlar to‘g‘riligi va soliqlar uchun Hamkor javobgar.

7. Hamkor hostingi

Hamkorlik faol bo‘lgan muddatda bitta PRO hosting bepul. Hamkorlik tugasa, joriy davr oxirigacha ishlaydi, keyin oddiy narxda.

8. Dighub majburiyatlari

Havola, promokod va kabinet berish; ulushni to‘g‘ri hisoblash va o‘z vaqtida to‘lash; Hamkorga yordam berish.

9. Hamkor majburiyatlari

- Reklama ekanini qonunchilikka muvofiq ko‘rsatish, narx va imkoniyatlarni to‘g‘ri aytish.
- Spam, soxta akkaunt va aldov ishlatmaslik.
- Dighub nomidan ish yuritmaslik va brend nomi bo‘yicha qidiruv reklamasi bermaslik.
- Mijozlar ma’lumotini oshkor qilmaslik.

10. Javobgarlik

9-band yoki 4-band buzilsa, Dighub shu buzilishga tegishli ulushni bekor qilishi va hamkorlikni to‘xtatishi mumkin, sababi Hamkorga yoziladi. Hamkor 14 kun ichida e’tiroz bildira oladi.

11. O‘zgartirish va bekor qilish

- Yangi shartlar e’lon qilingach 14 kundan keyin kuchga kiradi va faqat yangi Mijozlarga qo‘llanadi.
- Har bir tomon 14 kun oldin xabar berib bekor qilishi mumkin.
- Qoidabuzarliksiz bekor qilinsa, oldingi Mijozlar ulushi 12 oyi tugaguncha davom etadi. 50 000 so‘mdan kam qoldiq Dighub balansiga o‘tkaziladi.

12. Nizolar

Avval muzokara, kelishilmasa O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudda.

Tomonlarning rekvizitlari

Dighub	Hamkor (bloger)
Otabek Ahmadaliyev	
F.I.Sh.	F.I.Sh. yoki tashkilot nomi
STIR / JShShIR	STIR / JShShIR
Manzil	Manzil
+998 (33) 333-52-00	
Telefon	Telefon, Telegram
support@dighub.uz	
Elektron pochta	Promokod
Bank hisob raqami yoki karta	Bank hisob raqami yoki karta
Imzo	Imzo

Elektron raqamli imzo (E-IMZO) bilan imzolansa
Qo‘lda imzo va muhr qo‘yish talab qilinmaydi. Imzo egasi, sertifikat raqami, imzolangan sana va vaqt elektron hujjatning imzo ma’lumotlarida ko‘rsatiladi.

Ushbu hujjat dighub.uz/hamkor/bloger-shartnoma sahifasida e’lon qilingan ommaviy ofertaning (tahrir 2026-11-25.3) nusxasi. Nusxa shartnoma shartlarini o‘zgartirmaydi.